



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibo dovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	



AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI

Saidov Dilshodbek Razzakovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti (PhD)

ORCID:0009-0005-2721-5807

Annotatsiya. Ushbu maqola avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarning tasnifi, ularning asosiy xususiyatlari hamda amaliy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari xizmatlarni muayyan mezonlar asosida tasniflash, ularning ishlab chiqaruvchilar, dilerlik tarmoqlari va servis korxonalari faoliyatidagi o'rmini aniqlash, shuningdek, mamlakatimiz avtomobil bozori va biznesini rivojlantirishdagi strategik ahamiyatini baholash imkonini beradi. Maqolada xizmatlarni ichki va tashqi omillar, mahsulotga xos hamda obyektga xos xususiyatlar asosida guruhlash metodikasi ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari milliy avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: avtomobil sanoati, mahsulot bilan bog'liq xizmatlar, xizmatlar tasnifi, servis menejmenti, mahallilashtirish, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article is devoted to the study of the classification of product-related services in the automotive industry, their key characteristics, and practical significance. The research findings substantiate the need to classify services based on specific criteria, identify their role in the activities of manufacturers, dealer networks, and service enterprises, as well as assess their strategic importance in the development of the national automotive market and business environment. The article also presents a methodology for grouping services according to internal and external factors, as well as product-specific and object-specific characteristics. The results of the study contribute to the formulation of scientific and practical recommendations aimed at modernizing the national automotive industry and enhancing its competitiveness in international markets.

Key words: automotive industry, product-related services, service classification, service management, localization, competitiveness.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию классификации услуг, связанных с продукцией, в автомобильной промышленности, их основных характеристик и практического значения. Результаты исследования обосновывают необходимость классификации услуг по определённым критериям, определения их роли в деятельности производителей, дилерских сетей и сервисных предприятий, а также оценки их стратегической значимости для развития автомобильного рынка и бизнеса нашей страны. В статье также рассматривается методология группировки услуг по внутренним и внешним факторам, продуктоспецифическим и объектно-специфическим характеристикам. Полученные результаты способствуют формированию научно-практических рекомендаций по модернизации национальной автомобильной промышленности и повышению её конкурентоспособности на международных рынках.

Ключевые слова: автомобильная промышленность, услуги, связанные с продукцией, классификация услуг, управление услугами, локализация, конкурентоспособность.

KIRISH

Avtomobillarning texnologik jihatdan murakkablashuvi, elektron tizimlar ulushining ortishi hamda mijozlar talablarining diversifikatsiyalashuvi mahsulot bilan bog'liq xizmatlarning (sotuvdan oldingi, sotuv jarayonidagi va sotuvdan keyingi xizmatlar) sifatli va tizimli rivojlanishini taqozo etmoqda. Shu sababli, avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni ilmiy asosda tasniflash, ularning mazmuni va funksional xususiyatlarini aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar, elektromobillar hamda aqlli transport vositalarining jadal rivojlanishi avtomobil sanoatida yangi turdagi xizmatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Jumladan, masofaviy diagnostika, dasturiy ta'minotni yangilash, mobil servis xizmatlari va abonentlik asosidagi xizmatlar avtomobil



mahsulotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu jarayonlar mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni an'anaviy yondashuvlar doirasida emas, balki zamonaviy biznes modellari asosida qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni to'g'ri tasniflash va samarali boshqarish ishlab chiqaruvchilar, dilerlik tarmoqlari hamda servis korxonalari faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xizmatlar tasnifi orqali korxonalar mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish, servis xizmatlari sifatini yaxshilash hamda qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, mahsulot bilan bog'liq xizmatlarning puxta tasnifi avtomobil sanoatida qiymat zanjirining kengayishiga, brend sodiqligini mustahkamlashga hamda sotuvdan keyingi xizmatlar orqali uzoq muddatli mijozlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy nuqtai nazardan esa, ushbu mavzu avtomobil sanoatida xizmatlar iqtisodiyoti, servis menejmenti va innovatsion rivojlanish masalalarini chuqur tadqiq etish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Umuman olganda, avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar tasnifi nafaqat korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, balki milliy avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish hamda xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonida muhim amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada foydalanilgan adabiyotlar avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni tadqiq etishda nazariy va amaliy asosni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli¹ Farmoni mamlakatimiz avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun strategik yo'nalishlarni belgilab beradi. Ushbu hujjat avtomobil biznesida xizmatlarning milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda milliy mahsulotlarni raqobatbardosh qilish bo'yicha davlat siyosatini tushunish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Palm, Daniel va boshqalar (2019-yil) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarning tasnifi va ularning amaliy qo'llanilishi bo'yicha keng qamrovli ilmiy tahlilni taqdim etadi. Mualliflar xizmatlar tipologiyasini aniqlash hamda ularni ishlab chiqaruvchi va servis tizimlariga integratsiyalash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi, bu esa maqolada xizmatlar tasnifi metodikasini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Narinsky va Fedorovskaia (2011-yil) o'z ishlarida avtomobil sanoatidagi mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni baholash va ularning potensialini tahlil qilish metodlarini tadqiq etgan. Ushbu manba avtomobil xizmatlarini funksional mezonlar asosida guruhlash hamda ishlab chiqaruvchilar va dilerlik tarmoqlarining strategik qarorlar qabul qilish jarayonlariga tatbiq etish imkoniyatlarini yoritadi.

Schmidt, Alexander va boshqalar (2010-yil) ishida MES (Manufacturing Execution System) xizmatlari va ularning avtomobil sanoatidagi qo'llanilishi muhokama qilingan. Ushbu manba avtomobil ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida raqamli tizimlarning ahamiyatini ko'rsatib, xizmatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Heutschi, R. (2007-yil) ishida servisga yo'naltirilgan arxitektura tamoyillari va ularning amaliy tatbiqi yoritilgan. Ushbu manba avtomobil sanoatidagi xizmatlar tizimini loyihalash, mijozlarga yo'naltirilgan biznes modelini shakllantirish hamda xizmatlarni integratsiyalash jarayonida metodologik qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Analistik metod — avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar toifalari va ularning funksional xususiyatlarini tizimli tahlil qilish uchun ishlatildi.

Taqqoslash va klassifikatsiya metodlari — xizmatlarni ichki va tashqi omillar, mahsulotga xos hamda obyektga xos xususiyatlar bo'yicha guruhlash va tasniflash imkonini berdi.

Empirik metod — O'zbekistondagi avtomobil bozori va servis korxonalari faoliyati, shuningdek, xorijiy tajribalar asosida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda qo'llanildi.

Statistik metod — xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligini baholash va mahsulot bilan bog'liq xizmatlarning ta'sirini aniqlash uchun ishlatildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-3107036>



Komparativ metod — mahalliy va xalqaro tajribalarni solishtirish asosida xizmatlar tizimini jahon standartlariga moslashtirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Butun dunyoda, xususan, O'zbekistonda globallashtirish jarayonining tezlashishi hamda tovarlar aylanmasining kengayishi mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat kurashining keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Bunday murakkab sharoitda bozor ishtirokchilari uchun yashab qolish va ustunlikka erishish maqsadida korxonalar turli usullardan foydalanmoqda. Shunday usullardan biri uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlarga muddatli kafolatlar berish hamda sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Natijada ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot bilan bog'liq xizmatlar, ya'ni ishlab chiqaruvchi korxonalar o'z mahsulotiga bo'lgan talabni shakllantirish, uni qondirish hamda mijozlarning muammolarini hal qilish uchun ko'rsatiladigan xizmat turlari rivojlantirilmoqda. Ushbu xizmatlar mahsulotni sotishdan oldin, sotish jarayonida yoki sotishdan keyin qo'shimcha ravishda taqdim etiladigan xizmatlar hamda mahsulot hayot sikli bilan bog'liq yoki mustaqil xizmatlardan iboratdir. Bugungi kunga kelib, bunday xizmatlar avtomobil sanoatida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim mezonlardan biri sifatida shakllanib, servis xizmatlarini ko'rsatish avtomobil biznesi, xususan, avtomobil sanoatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar tipologiyasini shakllantirish ushbu xizmatlarni muayyan mezonlar asosida guruhlash va aniqlash imkonini yaratadi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda xizmatlarning o'ziga xos mezonlar bo'yicha tasniflanishiga alohida e'tibor qaratildi (1-jadval).

1-jadval. Avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ma'lum mezonlar asosida tasniflanishi²:

Asosiy mezon	Yo'nalish	Tasnif elementlari
1. Xizmatning o'ziga xos xususiyatlari	Ichki omillar	Inson omili; texnik qurilmalar; AKT texnologiyalari
	Tashqi omillar	Mijoz; moddiy obyektlar; nomoddiy obyektlar
	Mahsulot doirasi	Individual xizmat; xizmatlar jamlanmasi
	Ta'minlash muddati	Qisqa (1 kun ichida); o'rta (1 oy ichida); uzoq (1 oydan ko'p)
	Xizmat ko'rsatish joyi	Xizmat ko'rsatuvchi makonida; mijozning makonida; boshqa joyda; obyekt makonida
	Mijozning roli	Bevosita qatnashadi; kuzatuvchi bo'ladi; qatnashmaydi
	Mijoz buyurtmasini rejalashtirish	Qisqa (1 kun ichida); o'rta (1 oy ichida); uzoq (1 oydan ko'p)
2. Mahsulotga xos bo'lgan xususiyatlar	Sotish shakli	Qo'shimcha xizmatlar (qo'shish); erkin
	Sotish davri	Sotishdan oldin; sotish davrida; sotishdan keyin; erkin
	Foydalanishga nisbatan yo'naltirilganlik	Mahsulotga yo'nalgan; funksiyaga yo'nalgan; foydalanishga yo'nalgan; natijaga yo'nalgan; xizmatga yo'nalgan
3. Obyektga xos xususiyatlar	Mobillik	Mobillikni yaratish; mobillikni himoyalash; mobillikni kengaytirish; mobillikni erkinlashtirish
	Avtomobil turi	Yangi avtomobil; shaxsiy avtomobil; ijaraga olingan avtomobil; hech biri

Shu bilan birga, avtomobil sanoatida xizmatlarning mohiyatini chuqur anglash, ulardan samarali foydalanish yoki qayta foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniq belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu xususiyatlar oldindan belgilangan tamoyillar asosida shakllantirilib, turli manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari hisobga olingan holda rivojlantiriladi. Jumladan, mazkur xususiyatlar avtomobil mahsulotini loyihalash, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, texnik xizmat ko'rsatish hamda uni amaliyotda qo'llash uchun zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda avtomobil bozorini izchil rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha mos va samarali xizmat turlarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, hozirgi taraqqiyot bosqichida avtomobil biznesida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni rivojlantirish va ularni tizimli tashkil etish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda hamda mazkur yo'nalish iqtisodiy o'sish va raqobat ustunligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

2 Muallif ishlanmasi



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar kompaniyalar faoliyatining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Jumladan:

1. Mahsulot bilan bog'liq xizmatlar tipologiyasini shakllantirish orqali ularni ilmiy asosda tasniflash imkoniyati yaratiladi. Bu, o'z navbatida, xizmatlarning funksional va amaliy jihatlarini aniqlash, ularni mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish hamda korxona resurslarini samarali taqsimlash imkonini beradi.

2. Xizmatlar tasnifini ichki (inson omili, texnik qurilmalar, AKT texnologiyalari) va tashqi (mijoz, moddiy va nomoddiy obyektlar) omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqish korxonalarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

3. Mahsulot bilan bog'liq xizmatlarning mahsulot hayot sikli davomida sotuvdan oldin, sotish jarayonida va sotuvdan keyingi bosqichlarda taqdim etilishi mijozlar talabini qondirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda qo'shimcha daromad manbalarini yaratishga xizmat qiladi.

4. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda avtomobil sanoatining rivojlanishi davlat siyosati, huquqiy hujjatlar va milliy strategiyalar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Bu esa xizmatlar sifatini oshirish, mahalliyashtirish darajasini ko'tarish hamda jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimiz avtomobil sanoatida proteksionizm siyosatining bosqichma-bosqich yumshatilishi, turli kompaniyalarning bozorga kirib kelishi uchun imkoniyatlar yaratilishi hamda boj to'lovlarining kamaytirilishi soha rivoji uchun yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olgan holda, mamlakatimizda avtomobil bozori va biznesini jahon andozalari talablari asosida rivojlantirish, sohada mahalliyashtirish darajasini oshirish, qulay va samarali xizmat ko'rsatish hamda servis siyosatini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, respublikamizni 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida xizmat ko'rsatish va servis sohalarining milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xorijiy tajribalarni o'rganish natijalariga ko'ra, soha rivojini ta'minlashda hukumatning roli katta bo'lib, ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ularning to'laqonli bajarilishini ta'minlash uchun mustahkam huquqiy asoslarni shakllantirish talab etiladi. Mamlakatimizda avtomobil biznesini rivojlantirishning mavjud bosqichidagi tashkiliy-huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli³ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi "Avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3028-sonli⁴ qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat.

Avtomobil biznesi mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanganligi sababli, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalariga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, avtomobil sanoatini dastlabki bosqichda proteksionizm siyosati asosida himoya qilish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugungi kunga kelib ushbu chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich yumshatilayotganini kuzatish mumkin. Bu esa nafaqat avtomobil sanoatini rivojlantirish, balki avtomobil biznesida servis xizmatlari sifat darajasini ham sohaning umumiy rivojlanishiga mutanosib holda oshirish va takomillashtirishni taqozo etadi.

Avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar nafaqat mijozlar ehtiyojlarini qondirish, balki ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlashda strategik vosita sifatida xizmat qilmoqda. Xususan:

1. Milliy va xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ilg'or mamlakatlarda elektromobillar, masofaviy diagnostika, dasturiy ta'minotni yangilash va abonentlik xizmatlari avtomobil mahsulotining ajralmas qismiga aylangan. Shu bois, O'zbekistonda ham avtomobil xizmatlarini zamonaviy biznes modellari asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

2. Davlat siyosatining roli soha rivojlanishida muhim bo'lib, proteksionizm siyosatining yumshatilishi, boj to'lovlarining kamaytirilishi hamda mahalliyashtirishni rag'batlantirish xizmatlar sifatini oshirish va yangi korxonalarni bozorga jalb qilishga xizmat qilmoqda.

3. Xizmatlar tasnifi va boshqaruvi bo'yicha tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlarni mezonlar asosida tasniflash (ichki va tashqi omillar, mahsulot va obyektga xos xususiyatlar) korxonalarga mijozlarga

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-3107036>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi "Avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3028-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/-3226616>



yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish, servis xizmatlarini optimallashtirish hamda qo'shimcha daromad manbalarini yaratishda amaliy yordam beradi.

4. Raqobat va bozordagi barqarorlik nuqtayi nazaridan avtomobil mahsulotlari bilan bog'liq xizmatlarning sifatli rivojlanishi raqobatbardoshlikni oshiradi va uzoq muddatli mijozlar bilan barqaror aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa avtomobil biznesining milliy va xalqaro bozorlarda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Mamlakatimiz avtomobil sanoatida xizmatlarni tizimli rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni xalqaro tajriba va standartlar asosida tasniflash;
- davlat siyosati orqali investitsiyalarni jalb qilish va huquqiy bazani mustahkamlash;
- servis xizmatlarini raqamli texnologiyalar va zamonaviy biznes modellari bilan uyg'unlashtirish;
- mahalliyashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali jahon bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash.

Umuman olganda, olib borilgan muhokamalar shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar nafaqat ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, balki milliy avtomobil biznesini modernizatsiya qilish va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonida ham muhim strategik ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlar tasnifi va ularni tizimli boshqarish korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash hamda mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalarida tasdiqlandi. Mahsulot bilan bog'liq xizmatlar — sotuvdan oldingi, sotuv jarayonidagi va sotuvdan keyingi xizmatlar — avtomobil mahsulotining hayot sikli davomida mijozlar ehtiyojlarini qondirish, servis xizmatlari sifatini oshirish va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlarni ichki va tashqi omillar, mahsulotga xos hamda obyektga xos xususiyatlar bo'yicha tasniflash avtomobil ishlab chiqaruvchilar, dilerlik tarmoqlari va servis korxonalari faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion biznes modellari xizmatlarni yangicha shakllantirishga hamda mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz sharoitida avtomobil sanoatini rivojlantirish va mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni tizimli tashkil etish davlat siyosati, huquqiy hujjatlar hamda milliy strategiyalar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat avtomobil biznesini modernizatsiya qilish, balki milliy avtomobil sanoatining jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, avtomobil sanoatida mahsulot bilan bog'liq xizmatlarni puxta tasniflash va samarali boshqarish korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, brend sodiqligini mustahkamlash hamda milliy avtomobil biznesini jahon standartlariga moslashtirish jarayonida strategik ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalaridan kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // lex.uz .
2. Palm, Daniel; Fedorovskaia, K.; Narinsky, L.; Brinster, E. (2019). Classification and use of product-related services in the automotive industry.
3. Narinsky, L.; Fedorovskaia, K. (2011). Potentialanalyse für produktbegleitende Dienstleistungen der Automobilindustrie. TU Wien.
4. Schmidt, Alexander; Otto, Boris; Kussmaul, Alfrid. (2010). MES Services in the Automotive Industry. <http://www.alexandria.unisg.ch/Publikationen/71379>
5. Heutschi, R. (2007). Serviceorientierte Architektur: Architekturprinzipien und Umsetzung in die Praxis. Berlin–Heidelberg, Germany: Springer-Verlag.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
